# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI

# “IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

**TASDIQLAYMAN**
**“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Birinchi prorektori**
**________ J.D. Eltazarov**
**“___” noyabr 2022-yil**

**08.00.05 – “Xizmat ko’rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha PhD tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon**
# DASTURI

**SAMARQAND – 2022**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI**

**"IPAK YO'LI" TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI**

**TASDIQLAYMAN**
**"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Birinchi prorektori**
**____________ J.D. Eltazarov**
**"____" ____________ 2022-yil**

**08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha PhD tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon**

# DASTURI

**SAMARQAND – 2022**

## KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining asosiy sohasi sifatida o'zining salmoqli hissasiga ega. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ishchi kuchining 70 foizdan ortig'i ushbu sohada faoliyat yuritishmoqda. AQSh yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasining ulushi 81 foiz, Yaponiyada 76 foiz, Germaniyada 69 foiz va Rossiyada 62 foizni tashkil qilmoqda. O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi, yangi ish o'rinlarini yaratishdagi, mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashdagi hamda aholining hayot farovonligini oshirishdagi va boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishning harakatlantiruvchi omili sifatidagi roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha ham kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berildi.

## ASOSIY QISM

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishida uning nazariy asoslarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatish sohasi, uning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni, ushbu sohani rivojlantirish masalalari haqida iqtisodchi olimlar tomonidan bir-qancha ilmiy-amaliy ishlar olib borilgan. A.Smit, J.B.Sey, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.M.Keyns va MDH mamlakatlarida ham bu borada keng miqyosda ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Z.I.Belikina, O.N.Balaeva, M.D.Predvoditeleva, T.D.Burmenko, Ye.A.Razomasova, M.M.Xaykinlar xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalariga katta e'tibor bermokdalar. O'zbekistonda ham xizmat ko'rsatish sohasi muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimizdan S.S.G'ulomov, N.T.Tuxliev, Yo.A.Abdullaev, M.M.Muxammedov, M.Q.Pardaev, M.E.Pulatov, D.X.Aslanova, J.R.Zaynalov, K.B.Urazov, G'.H.Qudratov, I.S.Tuxliev, Q.J.Mirzaev, B.A.Abdukarimov, O.M.Pardaev, M.T.Alimova va boshqa bir qator olimlar ilmiy asarlar chop etdilar.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallashi uchun xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirishi, uning imkoniyatlaridan mamlakat ravnaqi yo'lida unumli foydalanishi zarur. Shu bois ushbu sohaga kadrlar tayyorlash juda muhim. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi OAKning qarori bilan shu mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun alohida 08.00.05 - "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi tashkil qilingan. Mazkur dastur shu ixtisoslik bo'yicha ilmiy tadqiqot olib boradigan doktorantlarga mo'ljallangan bo'lib, u bir qator xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan dasturlarni o'rganish asosida tayyorlandi. Shuning bilan bir qatorda uning o'rganish ob'ektiga kirgan masalalarning O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlar e'tiborga olinib, shu sohada malakali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorlarini tayyorlashga mo'ljallanib tuzilgan.

1-jadval

## I. MAVZULAR RO'YXATI

| № | Mavzular nomi |
|---|---|
| 1 | Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, xizmatlar faoliyatining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari |
| 2 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmatlar sohasining ahamiyati |
| 3 | Xizmatlar sohasida tadbirkorlik va korxonalarning tashkiliy huquqiy shakllari |
| 4 | Xizmatlar sohasi faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi |
| 5 | Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari |
| 6 | Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining aylanma fondlari va aylanma mablag'lari |
| 7 | Xizmatlar sohasi korxonalarida kadrlar. Mehnatning tashkil etilishi |
| 8 | Xizmatlar sohasi korxonalarida mehnatga haq to'lash |
| 9 | Xizmatlar sohasi korxonasini rivojlantirish strategiyasi |
| 10 | Xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatini rejalashtirish |
| 11 | Mahsulot va xizmatlar sifati, korxonaning raqobatbardoshligi |
| 12 | Xizmatlar sohasi korxonalarida innovatsion faoliyat |
| 13 | Xizmatlar sohasi korxonasining investitsion faoliyati |
| 14 | Xizmatlar sohasi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot va xizmatlar tannarxi |
| 15 | Xizmat ko'rsatish sohasi korxona va tashkilotlari foyda va rentabelligi |
| 16 | Mahsulot va xizmatlarni narxlashtirish |
| 17 | Xizmatlar sohasi korxonalari moliyasi |
| 18 | Innovatsion iqtisodiyotida xizmatlar bozorini rivojlantirish |
| 19 | Iqtisodiyotda xizmatlar sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati |

## II. MAVZULAR ANNOTATSIYASI

### 1-Mavzu. Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, xizmatlar faoliyatining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari.

Xizmatlar sohasining iqtisodiy mohiyati. Xizmatlar sohasining tabiati va tavsifi. Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyot tizimidagi o'rni. Xizmatlar ko'rsatish institutining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari.

### 2-Mavzu. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmatlar sohasining ahamiyati.

Iqtisodiyotda modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish zaruriyati. Zamonaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish ahamiyati. Iqtisodiyotni intensiv va ekstensiv rivojlantirish. Iqtisodiy islohotlarning bozor infratuzilmasini rivojlantirishdagi o'rni.

### 3-Mavzu. Xizmatlar sohasida tadbirkorlik va korxonalarning tashkiliy huquqiy shakllari.

Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Xizmatlar sohasida tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini tashkil etishning mohiyati. Xizmatlar sohasi korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlik.

### 4-Mavzu. Xizmatlar sohasi faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.

Xizmatlar sohasining iqtisodiy mohiyati. Xizmatlar sohasida samaradorlikning mazmuni va ahamiyati. Korxonaning xizmatlar faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari. Xizmatlar sohasidagi ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarida samaradorlikni oshirishning asosiy yo'llari.

### 5-Mavzu. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari.

Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlaridagi asosiy fondlar turlari va ularning tasnifi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida asosiy fondlar ammortizatsiyasi va uni hisoblash usuli. Ishlab chiqarish quvvati tushunchasi va uni hisoblash usullari. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati va yaxshilash yo'nalishlari.

### 6-Mavzu. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining aylanma fondlari va aylanma mablag'lari.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida aylanma fondlar va aylanma mablag'lar tushunchasi. Ularning tarkibi va tuzilishi. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining aylanma mablag'larga bo'lgan talabni aniqlash. Aylanma mablag'larni baholash ko'rsatkichlari. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarida aylanma fondlar va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

### 7-Mavzu. Xizmatlar sohasi korxonalarida kadrlar. Mehnatning tashkil etilishi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalarida kadrlar tushunchasi, ularning tarkibi va tushunchasi. Korxonalarda kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash. Korxona mehnat salohiyatining holatini va ta'minlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxona mehnat salohiyati samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

### 8-Mavzu . Xizmatlar sohasi korxonalarida mehnatga haq to'lash.

Mehnatga haq to'lashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Servis sohasi korxonalarida ishlovchilarning mehnatiga haq to'lash shakllari. Rag'batlantirish to'lovlari. Ish haqiga qo'shimchalar. Servis sohasi korxona va tashkilotlarida ish haqi ko'rsatkichlarini tahlil qilish, rejalashtirish tartibi.

**9-Mavzu. Xizmatlar sohasi korxonasini rivojlantirish strategiyasi.**

Strategiya tushunchasi va biznesda mavjud bo'lgan strategiya guruhlari. Xizmatlar sohasi korxonalarining strategik modellari. Xizmatlar sohasi korxonasining SWOT tahlil usuli.

**10-Mavzu. Xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatini rejalashtirish.**

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida rejalashtirishning mazmun va mohiyati. Xo'jalik faoliyatini rejalashtirishning usul va tamoyillari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida tuziladigan biznes rejaning vazifalari va funksiyalari. Biznes reja bo'limlarining mazmuni va tavsifi.

**11-Mavzu. Mahsulot va xizmatlar sifati, korxonaning raqobatbardoshligi.**

Mahsulot va xizmatlar sifati tushunchasi. Davlat va xalqaro standartlar va sifat sistemalari. Mahsulot va xizmatlar sifatini boshqarish va sertifikatlashtirish. Korxona raqobatbardoshligi tushunchasi. Raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar. Xizmat ko'rsatish korxonalari raboqatbardoshligini boshqarish. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari raboqatbardoshligini oshirishning asosiy yo'llari.

**12-Mavzu: Xizmatlar sohasi korxonalarida innovatsion faoliyat.**

Innovatsiyalar tushunchasi va innovatsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida. Korxonaning innovatsion faoliyati. Innovatsiyalarning funksiyalari, xususiyatlari va asosiy tamoyillari.

**13-mavzu. Xizmatlar sohasi korxonasining investitsion faoliyati.**

Investitsiyalar tushunchasi. Investitsiyalarning asosiy belgilanishi va bosqichlari. Kapital quyilmalar manbalari va moliyalashtirish strukturasi. Xizmatlar sohasiga investitsion resurslarni jalb qilishning amaliy mexanizmlari. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida investitsion g'oyaning shakllanishi. Investitsion loyihani amalga oshirish sharoitlarining tadqiqoti. Loyihaning texnik iqtisodiy asoslanishi. Investitsion loyihalar samaradorligining baholanishi.

**14-mavzu. Xizmatlar sohasi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot va xizmatlar tannarxi.**

Xizmat ko'rsatish sohasidagi ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining mazmun-mohiyati va tasnifi. Xizmatlar (ish, mahsulot) tannarxini kalkulyatsiyalash. Ishlab chiqarish uchun xarajatlar smetasi. Xizmatlar, ishlar, mahsulotlar tannarxini kamaytirishni rejalashtirish.

**15-mavzu. Xizmat ko'rsatish sohasi korxona va tashkilotlari foyda va rentabelligi.**

Xizmat ko'rsatish sohasi korxona va tashkilotlarining daromadlari tushunchasi, mohiyati va ahamiyati. Daromadlar tasnifi. Xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarida foyda tushunchasi, taqsimlanishi va uning ishlatilishi. Xizmatlar,

ishlar, mahsulotlar rentabelligi ko'rsatkichlari va ularni oshirishning asosiy yo'nalishlari.

### 16-mavzu. Mahsulot va xizmatlarni narxlashtirish.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida narx siyosatining mazmuni, qo'llaniladigan narx strategiyalari. Narxlarning funksiyalari. Dunyo amaliyotida mavjud narx chegirmalari turlari, mumkin bo'lgan narxni hisoblashda qo'llaniladigan usullar, servis va xizmat ko'rsatish korxonalarida narx hisoblash xususiyatlari.

### 17-mavzu. Xizmatlar sohasi korxonalari moliyasi.

Moliyaning mohiyati va funksiyalari. Korxonaning moliyaviy resurslari. Servis va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalaridagi moliyaviy resurslarning asosiy manbalari moliyaviy va operatsion lizing, faktoring, franchayzing, venchur (xavf xatar) kapitali masalalari.

### 18-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotida xizmatlar bozorini rivojlantirish.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar bozorining mazmun mohiyati va ahamiyati. O'zbekistonda innovatsion xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'llari va ularning iqtisodiyotdagi o'rni.

### 19-mavzu. Iqtisodiyotda xizmatlar sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati.

Innovatsion iqtisodiyotda klasterlar siyosati, o'ziga xos xususiyatlari hamda klaster usullarini qo'llashning ahamiyati. O'zbekistonda inoovatsion klasterlar va ularning tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari. Xizmatlar sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirish.

## III. TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston» NMIU, 2018.

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining kontseptsiyasi. Rasmiy sayt: uzbekistan 2035.uz/uz.

1.1.3. O'zbekiston Respublikasining "2019-2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasi". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil, 14-yanvar, 1-2 son.

1.1.4. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 18 iyul.

1.1.5. O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi Qonuni. -T., 2003.

1.1.6. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi" Qonuni. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000, №5-6.

1.1.7. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. -T., 1998.

1.1.8. O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. –T.: 2003.

1.1.9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 10 may. №O'RQ-537. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3113-son.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1.2.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 6-son.

1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 16-iyundagi PQ-4752 sonli Karori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2021-y.

1.2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-4707 sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2021-y.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb kilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil.

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida 2021-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

1.3.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2019-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2021-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi. "Zarafshon", 2021-yil 25-yanvar.uza.uz.

1.3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2018-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2019-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi. "Zarafshon", 2018-yil 28-dekabr.uza.uz.

1.3.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi. "Zarafshon", 2017-yil 23-dekabr.uza.uz.

1.3.4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutq. 2016-yil 8-sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592-b.

1.3.5. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma'ruza. 2016 yil 19 oktyabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

1.3.6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2016-yil 14-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592-b.

1.3.7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-

yil 14-yanvar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev asarlari to'plami. I-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592-b.

1.4. Monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalar

1.4.1. Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent-«Mehnat» 2004.-546-b.

1.4.2. Abduxakimov va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Fan texnologiya, 2007. 288-b.

1.4.3. Abulqosimov H. va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. –T.: Akademiya, 2005. -52-b.

1.4.4. Abdullaev Yo.A. Makroiqtisodiy statistika 100 savol va javob. –T.: Mehnat, 1998.-256 b.

1.4.5. Belikina Z.I. Ekonomika: uchebno-metodicheskiy kompleks. -M.:Prospekt, 2015. -224-b.

1.4.6. Boltabaev M.R., Tuxliev I.S. va boshqalar Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik, T.: 2018. – 417-b.

1.4.7.Balaeva O.N., Predvoditeleva M.D. Upravlenie organizatsiyami sferы uslug. Ucheb. Posobie/ : Gos. U-nta Vыsshey shkolы ekonomiki,-M.: Izd dom., Gos. 2010.-155-b.

1.4.8.Burmenko T.D. Sfera uslug: ekonomika, menedjment, marketing. Praktikum : uchebnoe posobie / kol. avtorov ; pod red. T.D. Burmenko. — M. : KNORUS, 2010. — 424-b.

1.4.9. Barchuk I.D. Amerika rыnochnaya ekonomika i obraz jizni. Moskva 2001. -158-b.

1.4.10. Kuzьmin S.A. Zanyatostь: strategii Rossii-M.: Editorial URSS., 2001-304-b.

1.4.11. Kagonov V.Sh., Kichedji V.N., Katulьskiy Ye.D., Ovchinnikov V.V., Pashik P.P., Tretьyan L.A. Chelovek i yego delo. Osnovы rыnochnoy ekonomiki.-M.: OLMA-PRESS 2003.- 480-b.

1.4.12. Lavlok K. Marketing uslug: Personal, texnologii, strategii. /

per.s ang. 4-e izd. -M.: Izdatelskiy dom Vilyams, 2005. – 1008-b.

1.4.13.Muxammedov.M.M. Xizmat ko'rsatish soxasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. Samarqand: «Zarafshon», 2017.-300-b.

1.4.14. Muxammedov M.M., Aslanova D.A., Isxokova S.A. Prakticheskie rekomendatsii po obespecheniyu zanyatosti molodeji (nauchnoe izdanie) Izd. «Zarafshon» Samarkand 2007.

1.4.15. Mirzaev Q.J., Pardaev M.Q. "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. 384-b.

1.4.16. Mirzaev Q.J., Shavqiev E., Janzakov B.K. "Innovatsion iqtisodiyot" o'quv qo'llanma T.; "Innovatsion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi" 2020-y. 298-b.

1.4.17. Mardonov B.B. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi.-Toshkent: Fan, 2013.-128-b.

1.4.18. Mardonov B.B. Shavqiev E., va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash va aholi farovonligini yuksaltirish: muammo va yechimlar. Monografiya.- T.: «Fan va texnologiya», 2019. -188-b.

1.4.19. Makkonel K.R., Bryu S.L. Ekonomks: Printsipi problemi i politika. V 2 T.: Per. s ang. T. I. T., 1-2 knigi M.: 1993.

1.4.20. Muxammedov M.M., Aslanova D.X., Isxokova S.A. Rinok truda Uzbekistana: regionalnie problemi bezrabotitsi i zanyatosti. (Nauchnoe izdanie) G.P. Izd-vo «Zarafshon» Samarkand 2008.

1.4.21. Pardaev M.Q. Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. T.: «Iqtisod moliya», 2011.-172 b.

1.4.22. Prosvetov G.I. Upravlenie v Sfere uslug: zadachi i resheniya. Uchebno-prakticheskoe posobie.- M.: Izdatelstvo» Alfa-Press», 2009.-184-b.

1.4.23. Pardaev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Samarqand, «Zarafshon» 2009.- 65-b.

1.4.24. Pardaev M.Q. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari. Monografiya.-T.: «Navruz» 2014.-264 b.

1.4.25. Razomasova Ye.A. Sfera uslug: teoriya, sostoyanie i razvitie: monografiya/Ye.A.Razomasova; NOU VPO Sentrosoyuza RF «Sibirskiy universitet potrebitelьskoy kooperatsii».-Novosibirsk, 2011.-136 s.

1.4.26. Samuelson P.A. Ekonomika.-M.: MGP. «Alьton», VNIISII, 1992.

1.4.27.Sarikov E., Mamatov M. Iqtisodiyot va biznes asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: Sharq, 1997.

1.4.28. Tuxliev I.S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. T.: «Iqtisod-moliya», 2010.-264 b.

1.4.29. Fayziev E.S. Servis sohasining iqtisodiyotdagi o'rni. Risola.-T.: Fan va texnologiya, 2007. -16 b.

1.4.30. Fayziev E.S. Servis tizim faoliyat asoslari. Ma'ruzalar matni. Samarqand: 2007.-208 b.

1.4.31.Xaykin M.M, Logistika v sfere uslug : uchebnoe posobie /. – SPb. : Izd-vo SPbGUEF, 2012. – 112 s.

1.4.32.Xo'jaev X.S., Qosimova S.X. Makroiqtisodiyot: amaliy qo'llanma. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 2001.-197 b.

1.4.33. Qudratov G'.H., Pardaev M.Q., Abdukarimov B.A. Servis rivoji-aholi bandligini ta'minlash va farovonligini oshirish omili. «Fan va texnologiya nashriyoti» 2007.

1.4.34. Qudratov G'.H., Mirzaev H.J. Pardaev M.Q. Agro servisni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Risola.-T.: Fan va texnologiya, 2007.-16 b.

1.5.35. O'runbaeva Yu.P. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o'zaro bog'liqligi va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Fan, 2013.-144 b.

1.5.Internet manbalari

- 1.5.1. http://data.worldbank.org/indicator - Jahon banki sayti
- 1.5.2. www.stat.uz. - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
- 1.5.3.www.dn.kz
- 1.5.4.www.spprinfo.ru
- 1.5.5.www.cer.uz
- 1.5.6.www.uzlaw.uz
- 1.5.7.www.farming market.uz
- 1.5.8.www.und.org
- 1.5.9.www.worldbank.org
- 1.5.10. www.stat.uz

**Baholash mezonlari**

Kirish imtihoni yozma yoki og'zaki ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga berilgan javob quyidagicha bo'ladi:

| Har bir savol uchun ball | Javobga qo'yiladigan talablar |
|---|---|
| 86-100 | Qo'yilgan savollarga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarinini yoritishda xatolik va chalkashlikkga yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan. |
| 71-85 | Savollarning mohiyatini tushungan. Javobini yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirgan.Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan. |
| 55-70 | Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan. |
| 0-54 | Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. |

**Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i** **N.Sh. Mansurova**